



BOSHLANG‘ICH TA’LIMIDA TA’LIMIY O‘YINLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI IFODALASH

Yarashov Mardon Jobir o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

m.j.yarashov@buxdu.uz

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini 1 soatlik dars jarayoniga jalb qilib fikrlarini jamlashlariga yordamlashish ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Ta’lim jarayonida turli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchi qiziqishini orttiradi. Mazkur maqolada dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlar hamda ularni raqamli texnologiyalar orqali berish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, samaradorlik, didaktik o‘yin, raqamli texnologiya, metod, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘zlashtirish, ta’lim jarayoni, topshiriq.

Abstract: Helping elementary school students to concentrate their thoughts by involving them in a 1-hour lesson increases their level of mastery. The use of various games in the educational process increases the student's interest. This article talks about didactic games that can be used in the course of the lesson and how to give them through digital technologies.

Key words: education, efficiency, didactic game, digital technology, method, knowledge, skill, competence, mastering, educational process, assignment.

Аннотация: Помогая учащимся начальной школы сконцентрировать свои мысли, вовлекая их в 1-часовой урок, повышается их уровень мастерства. Использование различных игр в учебном процессе повышает интерес учащихся. В



данной статье рассказывается о дидактических играх, которые можно использовать в ходе урока и их подаче с помощью цифровых технологий.

Ключевые слова: обучение, эффективность, дидактическая игра, цифровая технология, метод, знание, умение, компетенция, усвоение, учебный процесс, задание.

Kirish. Ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni yuqori nuqtaga chiqarish, har jihatdan yetuk, bilimli va salohiyatli kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning o'rni chuqurroq anglash maqsadida avvalo ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari kabi tushunchalarning ma'nosiniga alohida to'xtalish lozim.

Ta'lim o'qituvchining bolalarga bilim, ko'nikma va malakalar berishining, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar egallab olishi va ularni mustahkamlashining rejali suratda o'tadigan jarayonidir.

Ta'lim jarayoni bolalar xotirasining boyishi, ularning nutq va tafakkurining o'sish jarayonidir. Turli xil metod va usullar yordamida sodir bo'ladigan jarayondir.

O'yin — bolalarning ongiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, ob'ektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'yin kichik yoshdagi o'quvchilarning zarur ehtiyojidir.

Asosiy qism. Didaktik o'yin — ta'lim beruvchining usulubi bo'lib, ushbu usul ma'lum ta'limiy maqsadlarga erishishga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni mukammal o'rgatishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda aniq maqsad, masalan, biror hisoblash usulini, ya'ni ma'lum didaktik topshiriqni bajarish vazifa qilib belgilanadi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.



Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidolari bo'ladi. Ushbu qoidalariga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, ya'ni o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidolari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i — o'qituvchining o'quvchilarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olib chiqqan hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshirig'idir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki matematik tushunchalarni o'rgatish uchun o'qituvchi ta'limning eng qulay usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtiriladi. Bundan o'yinlar jarayonida o'quvchilar matematika fanidan darslikda berilgan, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan materiallarni oson o'zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko'rishga, ular to'g'risida fikrlashga, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarishga va xulosalarini asoslashga o'rganadilar. O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirishni va bilim, ko'nikma, malakalarini to'g'ri egallashlariga erishishni didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida didaktik o'yinlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar uchun didaktik materiallarni tayyorlab qo'yish, didaktik o'yin jarayoni uchun vaqtni to'g'ri belgilash hamda to'g'ri nazorat qilish, didaktik o'yinni yakunlash va xolisona baholash kabilarni aniq rejalashtira olish lozim. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- didaktik materiallarni yetarli darajada tayyorlash;
- didaktik o'yin jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida nazorat qilish va yo'l-yo'lakay to'g'rilab borish;
- didaktik o'yinlar o'quvchilarda ziyraklik va mustaqillikni shakllantirib, rivojlantirishga erishishga diqqatni qaratish lozim.



Masalan: 1-sinf matematika darsida “Qo‘shish amalining tarkibiy qismlari” mavzusi¹ bilan tanishtirilayotganda “To‘g‘ri yura olasanmi” didaktik o‘yinidan foydalanilsa kutilgan natijani beradi. Bu didaktik o‘yinni ikki guruhda musobaqa tarzida tashkil etish mumkin. Didaktik o‘yin uchun kerakli jixozlar: A4 format o‘lchamidagi qog‘oz va rangli markerlar. A4 format o‘lchamidagi qog‘ozga rangli markerlar yordamida 1 dan 5 gacha bo‘lgan sonlar ikki nusxada qog‘ozga to‘ldirib yoziladi va qog‘oz hamda yozuvlar sifatiga zarar yetmasligi uchun politelin xaltacha kiydirilib, mustahkamlanadi.

“To‘g‘ri yura olasanmi” didaktik o‘yinni quyidagicha tashkil etiladi: Sinf o‘quvchilar teng ikki guruhga bo‘linadi. Sonlar yozilgan tarqatmalar har ikkala guruh o‘quvchilari uchun alohida-alohida joylarda, bir-birlariga xalaqit bermagam holda, erkin harakatlanishi uchun qulay holatda, qadamlar kengligida sinf xonasi poliga qo‘yiladi. Guruh a‘zolariga didaktik o‘yin qoidasi tushuntiriladi. Didaktik o‘yinni guruhning birinchi raqamli o‘quvchilari boshlab beradilar. Ularga o‘yinni boshlash uchun ruxsat berilganda sonlar ustidan asta-sekin harakatlanadilar. Ya‘ni 1, 2, 3, 4, 5 sonlari ustidan yurib boradilar, so‘ng esa orqaga qaytadilar, ya‘ni 5, 4, 3, 2, 1 tarzida. Didaktik o‘yin shu tariqa guruhlarning barcha ishtirokchilari bajargunlarigacha davom etadi.

Bu didaktik o‘yinga sinf o‘quvchilari sonidan kelib chiqib vaqt belgilanadi. Didaktik o‘yin jarayonida sonlarni o‘ngdan va teskaridan sanash bo‘yicha ma‘lum ko‘nikmaga ega o‘quvchilar tomonidan muvaffaqiyatli bajariladi. Sonlarni o‘ngdan va teskaridan sanash bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lmagan o‘quvchilarda kutilgan natijani bermaydi. Buning o‘qibatida ular xafa bo‘lib qolishlari ham mumkin. Bundan cho‘chimaslik lozim. Keyingi darslar jarayonida ham takror-takror qo‘llanaverish natijasida kutilgan samarani beradi. O‘quvchilarga bu didaktik o‘yindan faqat o‘qituvchi rahbarligida sinfdagina bajarilmasligi, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham, uyda uy vazifalarini bajarish jarayonida ham bemalol foydalanish mumkin. Bunda A4 format o‘lchamidagi qog‘oz va rangli markerlar bo‘lishi

¹ 1-sinf matematika L. O‘rinboyeva, Sh. Ismailov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov, M. Jumayev, N. Ismailova, N. Usmanova. Darslik. Toshkent-2021



shart emasligi, oddiygina sinf xattaxtasida yozuv quroli sifatida foydalaniladigan rangli boʻrlardan ham foydalanish mumkinligi uqtirilishi lozim. Sinf oʻquvchilarining hammasi ham juda faol boʻlmasligi mumkin. Sinfning baʼzi oʻquvchilari oʻta tortinchoq boʻlishadi. Ular hamma vaqt ham oʻzining “Men”ini chiqara olmay qinaladilar. Bunday oʻquvchilar hamma vaqt ham dars jarayonida tashkil etiladigan didaktik oʻyinlar jarayonida qatnashmasliklari ham mumkin. Bunday oʻquvchilar payt poylab turib xattaxtadagi yozuv quroli boʻlmish rangli boʻrlarni olib qoʻyib, uyda, boshqalar eʼtiboridan chetda asfalt ustiga chizib bajarishlari mumkin va mustaqil bajarib bilimlarini mustahkamlaydilar.

Baʼzan shunday holatlar ham boʻladiki, oʻqituvchi bunday didaktik oʻyindan faqatgina bir xonali sonlar bilan tanishtirish jarayonida foydalanadi-yu ikki-uch xonali sonlar bilan tanishtirish jarayonida foydalanmasligi mumkin. Lekin oʻquvchilar uyda yoki tanaffus vaqtlarida mustaqil bu didaktik oʻyinlardan foydalanib, bilimlarini boyitadilar. Eng asosiysi biz ustozlar har bir dars mashgʻuloti uchun didaktik oʻyinlarni toʻgʻri tanlay olishimiz va oʻquvchilarga oʻrgata olishimizdir.

1-sinf matematika darsida “10 ichida qoʻshish” mavzusi² bilan oʻquvchilarni tanishtirayotganda “Jim” didaktik oʻyindan foydalanilsa kutilgan natijani beradi deb hisoblaymiz.

“Jim” didaktik oʻyini ham guruhlarda bajariladi. “Jim” didaktik oʻyini ham musobaqa tarzida tashkil etish bajariladi. Bu didaktik oʻyin ikki turda amalga oshirilishi mumkin.

1-turida: Doira chiziladi. Doira markazida +2 yoziladi. Doira tashqarisida esa sonlar yozilgan. Tashqi doira atrofida = lar qoʻyilgan boʻlib, bu = lardan keyinichki doira tashqarisida berilgan sonlarga ichki doira markazida berilgan sonlar yigʻindisi yoziladi.

2-turida: Doira markazida 10 ichida 2 sonini ayrishga doir topshiriqlar berilgan boʻlib, shu topshiriqni xuddi ipga tizilgan munchoqlar tarzida bajarishlari lozim. Masalan:

² 1-sinf matematika L. Oʻrinboyeva, Sh. Ismailov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov, M. Jumayev, N. Ismailova, N.Usmanova. Darslik. Toshkent-2021



10-2= topshirig'i berilgan bo'lsa, doira tashqarisida berilgan = dan keyin kichik doirachalar ichiga 8, 6, 4, 2 kabi tarzida yoziladi.

2-sinf matematika darsida "100 ichida qo'shish va ayirish" mavzusidan³ boshlab, aylanma daftarlarni yig'ish va tarqatish jarayonida 100 ichida sonlarni qo'shish va ayirish yuzasidan bilimlarini sinovdan o'tkazib, mustahkamlash maqsadida "Faol guruh" didaktik o'yinidan foydalanishni tavsiya etamiz.

"Faol guruh" didaktik o'yini har bir qatorda alohida-alohida o'tkazilishi ham, sinf jamoasi bilan ham tashkil etilishi mumkin. Aylanma daftarlarni yig'ilish jarayonida qatorning oxirgi partasida o'tirgan o'quvchiga o'qituvchi savol beradi. Masalan: O'qituvchi: Zarina 2 soniga 3sonini qo'shing. Zarina 5 deb savolga javob berish orqali daftarini qo'liga oladi va partadoshi Dilshodga 5 soniga 2 sonini qo'shing deb daftarini uzatadi. Dilshod 7 deb savolga javob berish orqali daftarini Zarina daftari ustiga qo'yadi va navbatdagi o'quvchi Nurbekka 2 soniga 2 sonini qo'shing deb daftarlarni uzatadi. Bu didaktik o'yin aylanma daftarlarni yig'ilgunga qadar davom etadi. Bu didaktik o'yindan keying darslar jarayonida ham takror-takror foydalanish kutilgan natijani beradi.

Ushbu didaktik o'yin orqali yig'indini toppish bo'yicha o'quvchilarda ko'nikma hosil bo'lingach, ayirmani topishga doir topshiriqlar bilan almashtirish ham mumkin. Masalan: O'qituvchi: Qatorning oxirgi partasida o'tirgan Dildoraga 9 sonidan 2 sonini ayirsak necha bo'ladi? Dildora 7 deb daftarini qo'liga oladi va partadoshi Shaxnozaga 6 sonidan 2 sonini ayirsak necha bo'ladi deb daftarini uzatadi. Shaxnoza 4 deb daftarini Dildoraning daftari ustiga qo'yib, navbatdagi o'quvchi Shaydoga 8 sonidan 2 sonini ayirsak necha bo'ladi deb daftarlarni uzatadi. 3-4-sinflarda bo'lish va ko'paytirish amali orqali ham bajarish mumkin. Bunda 9 gacha ko'paytirish jadvali yuzasidan ma'lum darajada bilimga ega bo'lsalar ham, ko'nikmaga ega bo'lmaganliklar sababli 2 ga ko'paytirishda boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Amallarning barchasi yuzasidan ko'nikma hosil bo'lgach aylanma daftarni yig'ish

³ 2-sinf matematika L. O'rinboyeva, Sh. Ismailov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov, M. Jumayev, N. Ismailova, N.Usmanova. Darslik. Toshkent-2021



jarayonida bir amalga doir topshiriqlardan, tarqatish jarayonida ikkinchi amalga doir topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Bu didaktik o`yinlarda g`olib guruhlar aniqlanib rag`batlantiriladi. Har bir didaktik o`yin qo`llanilgach g`oliblar aniqlanib rag`batlantirilsa kutilgan samarani albatta beradi.

O`quvchilarni matematika faniga qiziqtirishda mantiqiy masalalardan o`rinli foydalanish ham kutilgan samarani beradi. Mantiqiy masalalar o`quvchilarni fikrlashga, izlanishga va ijodkorlikka odatlantiradi. Masalan:

- Nodir 10 dan 10 olib tashladi va yana 10 hosil qildi. Buni Nodir qanday bajardi? (Qo`lqoplarini yechdi).
- Dilmurod tarelkada 4 dona konfet olib keldi. Konfetlarni o`rtoqlariga bo`lib berdi. So`ng tarelkada 1 dona konfet qoldi. Qanday? (Bir o`rtog`iga konfet tarelkasi bilan berildi).

Xulosa. Hozirgi kunda yangi avlod darsliklari nashr qilinib boshlang`ich sinf matematika fani o`zlashtirilishi anchagina murakkab jarayonga aylandi. Darliklarning birmuncha murakkabligi o`quvchilarni bilim olishga bo`lgan ishtiyoqini pasaytirishi mumkin. Shunday ekan o`quvchilarni bilim olishga bo`lgan ishtiyoqlarini sunishiga yo`l qo`ymaylik, aksincha qiziqishlarini oshirib, hisoblash malakalarini rivojlantirish maqsadida boshlang`ich sinf matematika darslarida didaktik o`yinlardan raqamli texnologiyalar orqali samarali va o`rinli foydalanish lozim. Bu esa bugungi kun talabi darajasidagi yetuk kadrlarni tayyorlash uchun muhim sanalgan omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1-sinf matematika L. O`rinboyeva, Sh. Ismailov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov, M. Jumayev, N. Ismailova, N.Usmanova. Darslik. Toshkent-2021
2. 2-sinf matematika L. O`rinboyeva, Sh. Ismailov, N. Ruzikulova, U. Raxmonov, M. Jumayev, N. Ismailova, N.Usmanova. Darslik. Toshkent-2021



3. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.
4. Jobirovich, Yarashov Mardon. "Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 7 (2021): 17-20.
5. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-465.
6. Jobirovich, Yarashov Mardon. "TOOLS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATIONAL COURSES." EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE 2.4 (2022): 119-123.
7. Jobirovich, Y. M. (2024, February). BOSHLANG ‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MATNLI MASALALAR USTIDA ISHLASH. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 1, pp. 5-8).
8. Jobirovich, Y. M., & Otabekovna, R. N. (2024, February). 3-SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O’RGATISH ME’ZONLARI. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 1, pp. 27-32).
9. Jobirovich, Y. M. (2024, February). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH TA’LIMINING ASOSIY DIDAKTIK TAMOIYILLAR. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 1, pp. 22-26).
10. YARASHOV, M. (2023). The Process of Creative Organization of Primary School Mathematics Education through Digital Technologies. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 30(30).



11. Yarashov, M. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI INTEGRATSIYALASH. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2(8), 46-49.
12. Olloqova, O. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA BADIY MATN TAHLILINING AHAMIYATI. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2(8), 25-29.
13. Mamanazarovna, O. O. (2023). Formation Of Students' Pragmatic Competence in Mother Language Classes on The Basis of the" 4k" Model. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 24, 33-36.
14. Olloqova, O. (2023). KOMMUNIKATIV MASHQLAR ORQALI O 'QUVCHILARDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(17), 134-140.
15. Mamanazarovna, O. O. (2023). FORMING PRAGMATIC COMPETENCE THROUGH TEACHING STUDENTS TO COMMUNICATION. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 720-723.
16. YUSUFZODA, S. MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O'QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISH ASOSI SIFATIDA. EDAGOGIK AHORAT, 59.
17. Yusufzoda, S. (2024). BIRINCHI SINFDAGRAFIK MALAKALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 45(45).
18. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.